

“Kosonsoy” sanatoriyasi – tabiat qo`ynidagi shifobaxsh maskan



“KOSONSOY” sanatoriysi – Namangan viloyati Chotqol tog’ tizmalari etagida, Kosonsoy daryosi bo'yida joylashgan, iqlimiyligini va balneologik sanatoriyyidir.

Sanatoriylar xarakat-tayanch, yurak-qon tomir, oshqozonichak, a'zolari va asab tizimi kasalliklarini davolash uchun mo'ljallangan.

Asosiy davolash omillari: musaffo havoli tog iqlimi (havoda kislorod zichligi 26 foiz) va tarkibi sulfat-xlorid-gidrokarbonad-natriyli, harorati 27°C tabiiy madanli suvidir. U ichish yo'li bilan hamda mineral vannalar qabul qilish yo'li bilan bemorlarni davolashda ishlataladi.



Sanatoriyda bemorlar shifobaxsh balchiq, parafin-ozokerit, uqalash, fizioterapiya, davolash jismoniy tarbiyasi, fitoterapiya va parhez ovqatlanish usullari bilan davolanadilar. Tashxis qo'yishda va davolashda zamonaviy uskunalar, klinik bioximik laboratoriya, shuningdek kardiolog, nevropatolog, ginekolog, stomatolog va boshqa mutaxassislar faoliyat ko'rsatadilar.

Yotoq xonalari shinam qilib bezatilgan, barcha qulayliklarga ega bo'lgan bir va ikki o'rinni xonalardan iborat. Oshxonada shirin, lazzatli parhez taomlar tayyorlanadi, “vitaminli stol” tashkil etilgan.

Dam oluvchilar uchun madaniyat saroyi, kutubxona va maishiy xizmat ko'rsatish xonalari mavjud. Ekskursiyalar tashkil etiladi.

Manzil: “Kosonsoy sanatoriyasi” MCHJ 160300 Namangan viloyati, Kosonsoy shahri, Xalqlar do'stligi ko'chasi 21-uy

Telefon: (+99869) 652-11-92 (Kosonsoy).

CHAK – CHAK BULOQ

(Obod mahalla)

Dengiz sathidan qariyb 1000 metr balandlikda joylashgan “Kosonsoy” sanatoriysi haqida nainki mamlakatimiz, balki xorijda ham yaxshi bilishadi. Sanatoriy iqlim sharoiti o‘ta qulay manzilda joylashgan.

Sihatgoh yoqalab oqayotgan 154 kilometr uzunlikdagi Kosonsoy soyi Chotqol tog‘ tizmalari, qor va muzliklardan boshlanadi. Zilol suv o‘zi bilan turli foydali minerallarni oqizib keladi va o‘zan atrofida salqin, mo‘tadil havoni vujudga keltiradi. Havoda kislorod zichligi 26-27 foizni tashkil etadi. Yer ostidan 500metr chuqurlikda chiqayotgan ma’danli suv turli kasalliklarga shifo bo‘lmoqda. Ayniqsa, asrlarga tengdosh “Chak-chak” buloq suvi shifobaxshlik bobida tengi yo‘q.



Ushbu buloq tuman ahli va bu yerga keluvchi sayyoohlar, dam oluvchilarning sevimli maskaniga aylangan. Buyuk sohibqiron Amir Temur mo‘g‘illarga qarshi kurash paytida Kosonsoydan Safedbulonga, u yerdan ortga qaytayotganida uning askarlari shu buloq atrofida tin olib, uning suvini ichib, kuchlariga kuch qo‘silgan. Bu joylarga sahobalarning qadami tekkan. Necha-necha asrlar o‘tdiki, bu buloq hali-hanuz o‘z mo‘jizasini namoyon etmoqda.

QADRLI ZAMONDOSH!

Kosonsoy tumanining tabarruk qadamjoylari va ziyyaratgohlari haqida imkon darajasida Sizlar bilan o‘rtoqlashishga harakat qildik. Xalqimizda bir ibora bor, “Ming marotaba eshitgandan ko‘ra, bir bora ko‘rgan afzal” deyilganidek, o‘zingiz ushbu jannatmakon va xushmanzara, ko‘hna tarixga boy makonlarga tashrif buyurib, Ollohning inoyati ila yaratilgan go‘zal manzaralar, mo‘jizakor tabiatdan, undagi muqaddas va tabarruk ziyyaratgohlardan bahramand bo‘ling!

